

MATEMATIK ANALIZNING AKADEMIK LITSEY VA UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QITILADIGAN MATEMATIKA KURSI BILAN ALOQADORLIGI.

Namangan davlat pedagogika instituti Matematika va informatika yo'nalishi MAT-BU-23 guruh talabasi Kamolxo'jayeva Mohiniso

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematik analiz fanining predmeti, matematik analiz fanining akademik litsey va maktablarda o'qitiladigan matematika kursi bilan aloqadorligi, hosila, integral, differensial funksiya tushunchalarining kelib chiqishi qisqa bayon etilgan.

Kalit so'zlar: matematika, matematik analiz, hosila, integral, diferensial funksiya, abstract, geometriya, algebra, analiz, uzluksizlik, o'zgaruvchi, akslantirish.

Matematika fani miqdorlar haqidagi aniq abstrakt fan bo'lib, u tevarakatofimizni qurshab olgan moddiy dunyoning miqdoriy munosabatlarini va fazoviy shakllarini o'rganadi. Uning aniqligi qo'yiladigan metodlarining qat'iy mantiqiy mulohazalarga asoslanganligi va xulosalarining qat'iy mantiqiy shaklda jamlanganligi bilan tavsiflanadi, abstraktligi esa tushunchalarining u yoki bu tabiiy (fizika, kimyoviy, biologik, iqtisodiy va hokazo) jarayonni analiz qilish maqsadida yaratilgan mantiqiy modellar ekanligi bilan xarakterlanadi³¹.

Matematikani fan sifatida shakllanishida va tarixiy taraqqiyoti jarayonida geometriya hamda fizikaning, ayniqsa, mexikaning xizmatlari beqiyos darajada katta bo'lgan. Buning dalili sifatida asosiy matematik tushunchalarning kelib chiqishiga bir nazar tashlash kifoya. Narsalarni sanash, geometrik va fizik kattaliklarni o'lchash jarayonida son tushunchasi, moddiy nuqtaning mexanik harakatini o'rganish jarayonida esa funksiya tushunchasi paydo bo'lgan. Harakatdagi moddiy nuqtaning oniy tezligini aniqlash masalasi hosila tushunchasiga, hosilalarni hisoblash masalasi esa funksiya limiti va uzluksizligi tushunchalariga olib keldi. Harakatdagi moddiy nuqtaning tezligiga ko'ra uning harakat qonunini tiklash masalasi boshlang'ich funksiya va aniqmas integral tushunchalari, egri chiziqli trapetsiya yuzini hisoblash va harakatdagi moddiy nuqtaning berilgan vaqt oralig'ida bosib o'tgan yo'lini hisoblash masalalari esa aniq integral tushunchasining vujudga kelishiga sabab bo'ldi³².

Oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fizika va astronomiyaga oid fanlar yuqorida aytilgan matematik tushunchalarni mukammal bilishni va boshqa bir qator yangi matematik tushunchalarni va matematik metodlarni o'rganishni talab qiladi.

³¹ Algebra va matematik analiz asoslari (1-qism)

³² https://ru.wikipedia.org/wiki/Математический_анализ

Matematik analizda funksiyalar va ularning umumlashmalari (funksionallar, operatorlar va boshqalar) limitlar metodi (cheksiz kichiklar metodi) vositasida analiz qilinadi. Biz o'rganadigan matematik analiz kursi to'plamlar va ular ustida amallar, haqiqiy sonlar nazariyasi, limitlar nazariyasi, differensial va integral hisob, qatorlar nazariyasi, oddiy differensial tenglamalar, kompleks o'zgaruvchining funksiyalari nazariyasi elementlari, Furiye qatorlari va integrallari kabi asosiy mavzulardan tashkil topgan. Uning o'qitilishidan ko'zda tutilgan asosiy maqsad, birinchidan, talabalarda fizika va astronomiyaning turli sohalarida differensial va integral hisobdan foydalanish ko'nikmalarini hosil qilish, ikkinchidan, talabalarni matematikaning matematik-fizika metodlari, kompleks analiz, funksional analiz, differensial va integral tenglamalar nazariyasi, ehtimollar nazariyasi kabi jiddiy bo'limlarini o'rganishga tayyorlashdan iborat.

Matematik analiz fani oliy matematikaning asosiy va ayni vaqtda, birinchi kurs talabalari duch keladigan dastlabki jiddiy bo'limi bo'lib, u universitetlarning, pedagogika universiteti va institutlarining matematika, fizika, mexanika-matematika, fizika-matematika fakultetlarida, tegishli o'quv dasturlari asosida alohida predmet sifatida o'qitiladi. Shuningdek, texnika, iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi va harbiy oliy ta'lim muassasalari talabalari ham oliy matematika kursini o'rganish jarayonida matematik analiz asoslari bilan tanishadilar.

«Matematik analiz» degan atama predmetning asl mohiyatini to'laroq aks ettiradigan «cheksiz kichiklar yordamida analiz qilish» degan iboraning so'nggi vaqtlardagi qisqa ko'rinishi bo'lib, unda funksiyalar va ularning umumlashmalari (funksionallar, operatorlar va boshqalar) cheksiz kichiklar metodi yordamida analiz qilinadi.

Matematik adabiyotlar ichida matematik analizga oid bir qancha klassik va zamonaviy adabiyotlar mavjud. Ularning ko'pchiligi u yoki bu ixtisoslikning o'ziga xos jihatlarini aks ettiruvchi dasturlar asosida rus tilida yaratilgan yoki xorijiy tillardan rus tiliga tarjima qilingan adabiyotlardir. Ko'p yillik pedagogik faoliyatimizdan ma'lumki, o'zbek tilida ta'lim olayotgan birinchi kurs talabalarining aksariyati rus tilida yozilgan yoki rus tilidan o'zbek tiliga tajjima qilingan adabiyotlardan foydalanishda ma'lum qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu qiyinchiliklarni bartaraf qilish maqsadida so'nggi yillarda oliy matematikaning turli bo'limlari, xususan, matematik analiz bo'yicha o'zbek tilida bir nechta o'quv qo'llanma va darsliklar nashr qilindi. Ular oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan kadrlarning matematik salohiyatini zamonaviy talablar darajasiga ko'tarishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Matematika tarixidan qisqacha ma'lumot: matematika so'zi yunoncha: fan, bilim so'zidan hosil bo'lgan. Matematikaning fan sifatida shakllanishini eramizdan avvalgi VI-V asrlarga taalluqli deyish mumkin, bu davrga qadar esa boshlang'ich ma'lumotlar to'planib borilgan. Shu to'plangan ma'lumotlar asosida arifmetika va geometriya fanlari yuzaga kelgan. Algebraning fan sifatida shakllanishi ko'p mamlakatlar va xalqlarning so'ngi ikki ming yillar davomidagi ishlar yakunidir.

IX asrning birinchi yarmida yashagan o'rta Osiyolik olim Muxammad Muso al-Xorazmiy birinchi bo'lib algebraning to'la mazmunini aniqlab berdi. Uning "Al-jabr val-muqobala" asari bu fanga algebra nomini berdi. IX-XII asrlarda turli tenglamalarni yechish usullarini O'rta Osiyolik Abu Rayxon Beruniy va Umar Xayyomlar ko'rsatib berdilar. XIV asr davomida harfiy algebraning kelib chiqishi tufayli funksiya tushunchasining taraqqiyotida yana bir qadam qo'yildi.

Fransuz faylasufi va matematigi Rene Dekart (1596-1650) algebra va geometriya fanlarining bir-biri bilan uzviy bog'lanishda ekanligini va o'zgaruvchi miqdorning ahamiyati haqidagi fikrlarni olg'a suradi.

XVII asrga kelib elementar matematikadan iborat bo'lgan bilimlar shu davr taraqqiyotining talab va ehtiyojlariga to'la javob berolmas edi. Natijada, XVII asrdan boshlab matematika taraqqiyotida yangi davr o'zgaruvchi miqdorlarni o'rganish davri boshlandi. Bu davrga kelib Rene Dekart va boshqa matematiklarning ishlarida funksiya tushunchasi kiritila boshlandi.

XVII asrning oxirida mashxur nemis matematigi G.Leybnits (1646-1716) va uning shogirdlari "funksiya" atamasini qo'llay boshladilar, lekin uni geometrik tushunchalarga taalluqli holda olib bordilar³³.

Iogann Bernulli (1667-1748) funksiya ta'rifini geometrik tildan ozod holda kiritadi. O'zgaruvchi miqdor va o'zgaruvchilardan turli usullar bilan hosil qilingan miqdorga o'zgaruvchining funksiyasi deyiladi

Bernullining bu ta'rifi faqat Leybnits ishlariga emas, balki mashxur ingliz matematigi va fizigi Isaak Nyutonning (1642-1727) ishlariga ham asoslangan edi.

Rus geometrigi N.I.Lobachevskiy (1792-1856) turli matematiklarning funksiya haqidagi mulohazalarini yakunlab, quyidagi ta'rifni keltiradi: Agar miqdorning har bir qiymatiga u miqdorning ma'lum bir qiymati mos kelsa, u holda miqdor o'zgaruvchi miqdor funksiyasi deyiladi.

XIX asrning ikkinchi yarmida funksiyaning ma'lum ta'riflari ko'pchilik matematiklarga uncha umumiy emasligi sezildi. Natijada funksiyaning umumiy ta'rifi yuzaga keldi. Bu ta'rifni to'plamlar nazariyasining asoschisi G.Kantor (1845-1918) va R.Dedekind- (1831-1916) lar berishdi: Ikkita to'plam berilgan bo'lsin, agar to'plamning har bir elementiga to'plamning ma'lum y elementi mos qo'yilgan bo'lsa, u holda x ga akslantirish berilgan deyiladi. Bu y element ning f akslantirishdagi aksi deyiladi va $f(x)$ orqali belgilanadi. Agar haqiqiy sonlardan iborat bo'lsa, u holda haqiqiy argumentli funksiya berilgan deyiladi.

Haqiqatdan, G.Leybnits 1682-1686 yillarda differensial va integral hisobga oid maqolalar bosib chiqardi. Undan avvalroq 1670-1671 yillarda I.Nyuton differensial va integral hisobni ishlab chiqdi. Shunday qilib, Nyuton va Leybnits bir-biridan mustaqil tarzda differentsial va integral hisobning asosiy tushunchalarini differensiallash va integrallashamallarini kiritdilar va asosiy munosabat "Nyuton-Leybnits formulasi"ni yaratdilar.

³³ Akademik litseylar uchun darslik 6-nashri (A.U.Abduhamidov, H.A.Nasimov, U.M.Nosirov, J.H.Husanov) "O'qituvchi" nashriyoti. Toshkent-2007

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari dasturlarida “matematik tahlil” kursining ba’zi bir bo’limlari mustahkam o’rin olayпти. Shu tufayli akademik litsey va kasb-hunar kollejlari matematika kursida faqat funksiya haqida boshlang’ich tushunchalar emas, balki asosiy elementar funksiyalar, ularni differensial hisob usullari yordamida o’rganish, integral hisob tushunchalari bilan tanishtiriladi.

Matematik analiz matematikaning muhim sohalaridan biri bo’lib, u funksiyalar, limitlar, hosilalar, integrallar va ularning xossalari bilan shug’ullanadi. Akademik litsey va umumta’lim maktablarida o’qitiladigan matematika kursi bilan aloqadorligi bir necha jihatdan ko’rinadi:

1. Fundamental tushunchalar: Matematik analizda o’rganiladigan asosiy tushunchalar, masalan, limit, hosila va integral, umumta’lim maktablarida o’qitiladigan algebra va geometriya kurslarida tayyorlanadi. Bu tushunchalar o’quvchilarga matematik fikrlashni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

2. Amaliy qo’llanilish: Matematik analiz ko’plab ilmiy va texnik sohalarda, masalan, fizika, iqtisodiyot va muhandislikda qo’llaniladi. Akademik litseyda o’qitilayotgan matematik kurslar bu sohalarda talab qilinadigan nazariy asoslarni berishga xizmat qiladi.

3. Kengaytirilgan o’quv dasturi: Akademik litseyda matematik analiz kurslari o’quvchilarga chuqurroq va kengroq bilim berishga yo’naltirilgan. Bu, o’z navbatida, o’quvchilarga universitetda matematik yoki boshqa ilmiy yo’nalishlarda ta’lim olish uchun tayyorlanishga yordam beradi.

4. Muammolarni hal etish ko’nikmalari: Matematik analizni o’rganish, o’quvchilarga murakkab muammolarni hal qilish ko’nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu ko’nikmalar esa umumta’lim maktablarida o’qitiladigan boshqa fanlar, masalan, fizika va informatika, bilan bog’liq bo’lishi mumkin.

5. Kreativ fikrlash: Matematik analiz o’rganish jarayonida o’quvchilar kreativ fikrlash va analitik ko’nikmalarni rivojlantirishni o’rganadilar, bu esa ularning umumiy ta’lim jarayoniga ijobiy ta’sir ko’rsatadi.

Xulosa o’rnida aytib o’tish joizki, matematik analiz akademik litsey va umumta’lim maktablarida o’qitiladigan matematik kurslar bilan juda yaqin aloqada bo’lib, o’quvchilarni matematimatika sohasida yetuk kadr bo’lib kamol topishida, ilmiy va amaliy jihatdan tayyorlashda muhim ro’l o’ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Algebra va matematik analiz asoslari (1-qism)

2. Akademik litseylar uchun darslik 6-nashri (A.U.Abduhamidov, H.A.Nasimov, U.M.Nosirov, J.H.Husanov) “O’qituvchi” nashriyoti. Toshkent-2007

3. https://ru.wikipedia.org/wiki/Математический_анализ

4. <https://uz.khanacademy.org/math/precalculus>

5. [https://library.tsd.uz/storage/books/March2022/eiB8TEzg8KVl0SlbbVJj.p](https://library.tsd.uz/storage/books/March2022/eiB8TEzg8KVl0SlbbVJj.pdf)

[df](#)